QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 8-son)

PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i08.059

O‘QUVCHILARNING NUTQIY ETIKETDAN FOYDALANISH HOLATI

Hikmatova Gulandom Ziyodulloyevna,
Buxoro davlat universiteti
“Ta’lim va tarbiya nazariyasi(O‘zbek tili)yo‘nalishi
mustaqil izlanuvchisi
gulandomhikmatova86@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning nutqiy etiketdan foydalanish holati diagnostik tahlil asosida o‘rganilgan. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning muloqot jarayonida salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash, xayrlashish kabi nutqiy etiket birliklaridan foydalanish darajasi aniqlanib, mavjud muammolar va ularning sabablari tahlil qilingan. Diagnostika natijalari asosida o‘quvchilarda nutqiy madaniyatni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish hamda nutqiy etiket ko‘nikmalarini samarali shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy etiket, diagnostika, o‘quvchilar, nutqiy madaniyat, kommunikativ kompetensiya, muloqot, ta’lim jarayoni.

Abstract. This article examines students' use of speech etiquette based on diagnostic assessment results. The study evaluates the extent to which students use speech etiquette expressions such as greetings, forms of address, expressions of gratitude, apologies, and farewells in communication. Existing problems and their underlying causes are analyzed. Based on the diagnostic findings, recommendations are provided for improving students' speech culture, enhancing their communicative competence, and developing effective speech etiquette skills within the educational process.

Keywords: speech etiquette, diagnostics, students, speech culture, communicative competence, communication, educational process.

Аннотация. В данной статье на основе результатов диагностики исследуется уровень использования речевого этикета учащимися. В ходе исследования определены особенности применения учащимися формул приветствия, обращения, благодарности, извинения и прощания в процессе общения, выявлены существующие проблемы и проанализированы причины их возникновения. По результатам диагностики предложены рекомендации по развитию речевой культуры, совершенствованию коммуникативной компетенции и эффективному формированию навыков речевого этикета у учащихся.

Ключевые слова: речевой этикет, диагностика, учащиеся, речевая культура, коммуникативная компетенция, общение, образовательный процесс.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Muloqot jarayonining samaradorligi nafaqat til birliklarini to‘g‘ri qo‘llashga, balki nutqiy etiket me’yorlariga amal qilishga ham bog‘liq. Nutqiy etiket insonning madaniy saviyasi, odob-axloqi va muomala madaniyatini namoyon etuvchi muhim vosita hisoblanadi.Maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutqiy etiket ko‘nikmalarini shakllantirish ularning kelajakdagi ijtimoiy munosabatlari, jamoada ishlash qobiliyati va shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois o‘quvchilarning nutqiy etiketdan foydalanish holatini aniqlash va tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.Diagnostika umumta’lim maktabi o‘quvchilari ishtirokida kuzatish, anketa, suhbat hamda vaziyatli topshiriqlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida quyidagi mezonlar asos qilib olindi. Salomlashish madaniyati,murojaat shakllaridan foydalanish,minnatdorchilik bildirish,uzr so‘rash madaniyati,iltimos va takliflarni odob doirasida ifodalash,xayrlashish odobiga rioya qilish.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlil.Nutq madaniyati mavzusi juda keng tushuncha. U, eng avvalo, til madaniyatiga amal qilish, nutq me’yorlari asosida to‘g‘ri, o‘rinli, tushunarli bir tarzda gapirish va yozish, shu bilan birga, nutq etikasiga rioya etish, xushsuxan bo‘lish, silliq, yoqimli gapirishdan iboratdir”, – deya ta’kidlagan professor S.Ibrohimov nutq madaniyati mavzusining keng tushuncha ekanligining ma’lum jihatlarinigina qayd etgan [1;-b-4]. Berger va Luckmann jamiyatni “ijtimoiy konstruksiya” deb baholab, insonlar o‘rtasidagi muloqot va ijtimoiy tajriba almashinuvi orqali jamiyatning ma’naviy va axloqiy tizimi shakllanishini asoslab beradi[2;-c-32]. K.Mahmudov bir necha hayotiy misollar va rivoyatlar orqali ko‘rsatib beradi. Ayniqsa, “Uyiga mehmon kelmay qolsa, odamlardan o‘pkalay bermay, har kim o‘ziga, odob-axloqiga nazar tashlamog‘i joiz”, “Mezbonning ko‘pchilikka malol keladigan odati bo‘lsa, bundaylardan ham mehmon yuz o‘giradi”, “Mehmonni malol ko‘radigan odam o‘zi ham mehmon bo‘lganda, malol kelishini o‘ylashi kerak”, - degan fikrlari mehmondorchilik marosimi botin va zohiriga ko‘ra axloqiy-estetik jarayon ekanligidan dalolatdir[3;-c.-27]. R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, I).RBabayeva, DAbdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshqa tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta’siri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o‘rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o‘zlashtirish va ijtimoiy o‘zaro hamkorlik—o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa -ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon (stixiyali jarayon o`z holicha kechadigan , kimdir maxsus boshqarmayotgan jarayon .Masalan:Jamiyatda : odamlarning to`satdan noroozilik namoyishi , tartibsiz migratsiya .Psixologiyada : kayfiyatning kutilmaganda o`zgarishi , hissiyotlarning to`satdan portlashi .Nutq jarayonida : tayyorgarliksiz , o`ylamasdan gapirib yuborish.) emas, degan fikrga asoslanadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag`batlantiruvchi yoki unga to`sqinlik qiluvchi kuchlarlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko`zlagan holda pedagogik ta`sir ko`rsatishni tashkil etish kaliti.[4;-b-27]. O‘quvchilarning aksariyati kundalik muloqotda salomlashish va xayrlashish etiketiga amal qiladilar. N.Mahmudov nutq madaniyatini shaxsning madaniy saviyasi va ma’naviy

darajasini ko‘rsatuvchi asosiy mezon sifatida baholaydi. Olimning fikricha, nutq madaniyati til me’yorlarini bilish bilangina cheklanmay, balki uni vaziyatga mos qo‘llash, tinglovchini hurmat qilish va estetik nutq yaratish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.[5;-b-42]. Mavlono Jaloliddin Rumiy ta’kidlaganidek, «Inson gapiruvchi hayvondir. Uning xususiyati hayvonlikdan va gapirishdan iborat. Hayvonlik unda doimiydir, ayrilmasdir. So‘z ham shundoq. Inson ko‘rinishdan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi. Bu hoi go‘yo loy qorishgan suv toshqiniga o‘xshaydi. Toshqinning toza suvi insonning so‘zi (nutqi), balchig‘i esa hayvonligidir. Biroq balchiq unda o‘tkinchi bolib, vaqt kelib ulardan asar ham qolmaydi. Yaxshi yoki yomon bo‘lishiga qaramay so‘zlar, hikoyalar va bilimlar qoladi»[6;-c.-73].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot o‘quvchilarning nutqiy etiketan foydalanish holatini aniqlash, uning darajasini baholash hamda nutqiy etiket ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy, kommunikativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslanadi.Tadqiqotning nazariy asosini tilshunoslik, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, pedagogika va psixologiya fanlarida ishlab chiqilgan ilmiy qarashlar tashkil etadi. Jumladan, nutqiy etiketning pragmatik xususiyatlari, kommunikativ kompetensiya nazariyasi hamda xushmuomalalik tamoyillari tadqiqotning metodologik poydevori sifatida xizmat qiladi.

Nazariy tahlil metodi. Mazkur metod yordamida nutqiy etiket, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya va pedagogik muloqotga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda o‘quv dasturlari tahlil qilinadi. Natijada tadqiqotning nazariy asoslari aniqlashtiriladi.

Kuzatish metodi. O‘quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatdagi og‘zaki muloqoti bevosita kuzatiladi. Kuzatish jarayonida salomlashish, murojaat qilish, iltimos bildirish, minnatdorchilik izhor etish, uzr so‘rash va xayrlashish kabi nutqiy etiket birliklaridan foydalanish holati qayd etiladi.

Suhbat metodi. O‘quvchilar, ona tili o‘qituvchilari va ota-onalar bilan suhbatlar o‘tkazilib, nutqiy etiketga bo‘lgan munosabat, undan foydalanishga ta’sir etuvchi omillar hamda mavjud muammolar aniqlanadi.

So‘rovnoma metodi. Maxsus ishlab chiqilgan anketa orqali o‘quvchilarning nutqiy etiket haqidagi bilimlari, kundalik muloqotdagi odatlari va nutqiy xulq-atvori o‘rganiladi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Diagnostika natijalari quyidagicha umumlashtirildi:

Ko‘rsatkich	Yuqori (%)	O‘rta (%)	Past (%)
Salomlashish	82	14	4
Murojaat qilish	61	28	11
Minnatdorchilik bildirish	70	22	8
Uzr so‘rash	58	29	13
Iltimosni odob bilan ifodalash	64	25	11
Xayrlashish	79	16	5

Olingan natijalar. Eng yuqori ko‘rsatkich salomlashish va xayrlashish madaniyatiga to‘g‘ri keladi. Bu holat o‘quvchilar ushbu etiket birliklarini kundalik hayotda ko‘proq qo‘llashi bilan izohlanadi.Nisbatan past natijalar esa uzr so‘rash hamda murojaat shakllaridan

foydalanishda kuzatildi. Ayrim o‘quvchilar tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda bir xil murojaat shakllaridan foydalanishi, rasmiy va norasmiy vaziyatlarni farqlay olmasligi aniqlandi. Nutqiy muloqot, muomala madaniyati va altruizm jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini mustahkamlovchi asosiy omillardan biridir. Nutqiy muloqot insonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi va hamkorlikning asosiy vositasi bo‘lsa, muomala madaniyati ushbu jarayonning odob-axloqiy me’yorlarga mosligini ta’minlaydi[7;-b-34-38]. Shuningdek, ayrim o‘quvchilar elektron muloqot vositalarida qisqartirilgan yoki norasmiy ifodalarni haddan tashqari ko‘p ishlatishi sababli adabiy nutq me’yorlariga rioya qilish darajasi pasaygani kuzatildi.Olingan natijalar o‘quvchilarda nutqiy etiket ko‘nikmalari shakllangan bo‘lsa-da, ularning barqaror emasligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, rasmiy muloqot vaziyatlarida zarur bo‘ladigan odob me’yorlarini qo‘llash bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarga ehtiyoj mavjud.

Diagnostika natijalari quyidagi omillar nutqiy etiketning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi:

- oiladagi muloqot madaniyati;
- o‘qituvchilarning nutqiy namunasi;
- sinfdagi kommunikativ muhit;
- badiiy adabiyot mutolaasi;
- internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri.

Muhokama. Kitob mutolaa qiladigan hamda oilasida odobli muloqot muhiti mavjud bo‘lgan o‘quvchilarning nutqiy etiket ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ladi. Adib, tilshunos Siddiq Mo‘min o‘zining “So‘zlashish san’ati” asarida nutq madaniyati, muomala odobi kabi masalalarga to‘xtalib o‘tib, uning so‘zboshisini ham “Yaxshining so‘zi moy...” maqoli bilan boshlab, birinchi maqolani “Avval tinglashni o‘rgan” deb nomlaydi va shoir Azim Suyundan ikki misra she’r keltirib o‘tadi:Azizlarim, tinglasangiz jim,Bir suhbatning keldi-da gali.Asardagi bir maqolaga “Indamasdan indashni bilasizmi?”sarlavhasini qo‘yib, so‘ngra “Sukutda hikmat ko‘p, Bulutda – himmat”maqolini keltiradi.[6;-b-17-18]. Diagnostika natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.Unga ko‘ra,dars jarayonida nutqiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar sonini ko‘paytirish,rolli o‘yinlar va dialoglardan samarali foydalanish,o‘quvchilar nutqini muntazam kuzatib borish,ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish,badiiy asarlar va milliy qadriyatlarga asoslangan topshiriqlarni keng qo‘llash,raqamli muloqot madaniyati bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish kerakligi amaliy jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi. Nutqi yaxshi rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishib ketadi,o'z fikrlarini va istaklarini tushunarli tarzda bayon etadi. Aksincha, bolalardagi tushunarsiz nutq o'zaro insonlar bilan munosabatlarni murakkablashtiradi. O'quvchi xarakterida salbiy xususiyatlarni (odamovi, indamas, qo'rqoq va hakoza) vujudga kelishiga sababchi bo’ladi[7;-c.17-20]. O’qituvchi maktab yoshidagi bolalar uchun, asosan, 7-sinfga qadam qo'yganida dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berishi zarur. Monologik nutq, muayyan mavzuga oid mantiqiy izchil gaplar shaklida ifodalangan hamda boshqalarga ta'sir ko'rsatish uchun yo'naltirilgan fikrlarning uyushgan qismi. O'quvchi monologik nutqga tayyorgarlik jarayonida, tinglovchi uning aytayotgan fikr –mulohazalaridan qiziqarli tasvirni

bilishni istaydi. Shu boisdan, bola nutq rejasini mantiqan tuzish maqsadida bayon etishga oid iboralarni to’g’ri tanlash, gaplarni oqilona tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga harakat qiladi.

Mazkur tavsiyalar o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va nutqiy etiket me’yorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Nutq rivojlanishida oila muhim o‘rin egallaydi. Ota-onalar bola bilan ko‘proq muloqot qilishi, uning savollariga sabr bilan javob berishi, kitob o‘qishga qiziqtirishi va nutqiy faolligini qo‘llab-quvvatlashi zarur. Tarbiyachi va o‘qituvchilar esa ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanib, har bir bolaning erkin fikr bildirishiga imkon yaratishi lozim. Nutq janrlari dialogik hodisa sifatida invariant-variant modeli sifatida sintagmatik va paradigmatik munosabatlar tizimi orqali o‘rganiladi. Shu o‘rinda oiladagi Nutq janri so‘zlovchining turli tipik intensiyalari nutq janrining bir logik-intensional aspekti sifatida ko‘riladi [8;-c.143-148]. Oila va ta’lim muassasasining uzviy hamkorligi bolaning nutqiy rivojlanishini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.Diagnostika natijalari o‘quvchilarning nutqiy etiketdan foydalanish darajasi umumiy jihatdan qoniqarli ekanligini, biroq ayrim etiket birliklarini qo‘llashda muayyan kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, murojaat qilish, uzr so‘rash va rasmiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Nutqiy etiketni tizimli ravishda o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlar va interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning muloqot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Tahlillar o‘quvchilarda nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, dars jarayonida nutqiy vaziyatlarga asoslangan mashqlar, rolli o‘yinlar, dialoglar hamda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy etiketdan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, nutqiy etiketni o‘qitish jarayonini takomillashtirish o‘quvchilarning muloqot madaniyati va ijtimoiy kompetensiyasini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.Diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning nutqiy etiket vositalaridan foydalanish darajasi bir xil emas. Aksariyat o‘quvchilar salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish va uzr so‘rash kabi oddiy nutqiy etiket birliklaridan foydalana olsalar-da, muloqot vaziyatiga mos ravishda hurmat ifodalovchi, iltimos va taklif bildiruvchi nutqiy formulalarni qo‘llashda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayrim hollarda nutqiy etiket me’yorlariga to‘liq rioya qilinmasligi yoki ularning noo‘rin qo‘llanishi kuzatildi. Nutqiy etiket jamiyatda ta’lim sifatini ta’minlovchi va pedagogik kasbning muqaddasligini saqlab qoluvchi asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.[10;-c.356-360]

Xulosa. O‘quvchilar kundalik muloqotda salomlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash va murojaat qilish kabi nutqiy etiket birliklaridan foydalansalar-da, ayrim holatlarda ularni vaziyatga mos va to‘g‘ri qo‘llashda kamchiliklar uchraydi. Ayniqsa, raqamli muloqot vositalarining keng qo‘llanilishi qisqartirilgan va norasmiy nutq shakllarining ko‘payishiga sabab bo‘lib, adabiy til me’yorlariga rioya qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Shu bois ta’lim jarayonida nutqiy etiketni o‘rgatishga tizimli yondashish, dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishga alohida e’tibor qaratish

maqsadga muvofiqdir. Oila, maktab va jamiyatning hamkorligi orqali o‘quvchilarda odobli, madaniyatli va samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.Umuman olganda, o‘quvchilarning nutqiy etiketdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning nutq madaniyatini, balki shaxsiy kamoloti, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahrorov A. O ‘zbek xalq maqollarida “nutq odobi” ma’nosining ifodalanish darajasi //Uzbekistan: Language and Culture. – 2022. – T. 4. – №. 4.
2. Berger, P. & Luckmann, T. (1966). The Social Construction of Reality. New York: Anchor Books.
3. Mahmudov Karim. Mehmonnoma. . T.: “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1989. 26 b.
4. QodirovaF.K. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillar. T.2006 y
5. Rum iy Jaloliddin. Ichingdagi ichingdadir. - T .: Yozuvchi, 1997. 73 b
6. Mahmudov, N.(2007).Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
7. Xrojiddinova, M., and M. Mehmonova. "Nutqiy muloqot, muomala madaniyati va altruizmning ijtimoiy munosabatlardagi o ‘rni." Qo ‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali 8.2 (2026): 34-38.
8. Мўмин, С. 1997. Сўзлашиш санъати. Фарғона.
9. Jumanova D. Nutqiy janrlar nazariyasida “oila” konseptining lingvomadaniy talqini //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 6. – C. 143-148.
10. Husniddin H. O'quvchi nutqining shakllanishida tarbiyaviy omillar va pedagogik yondashuv //sustainability of education,socio-economic science theory.– 2026.– T.4.– №.38. – C. 17-20.
11. 7-sinf ona tili darsligi T.2022y
12. Kurbanbayeva M. Pedagogik oliy ta'limda raqamli kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion yondashuvlari //tamaddun nuri jurnali. – 2025. – т. 8. – №. 71. – с. 356-360.